XALQ DEPUTATLARI JONDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-021-2-35-K/24 Jondor tumani

Jondor tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga va Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Buxoro viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01/06/20-12-38/2224-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Jondor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Jondor tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **140 484,5 mln.so‘m** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **140 484,5 mln.so‘mga** tasdiqlanganligi, shuningdek Jondor tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **1 405,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Jondor tumani budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga muvofiq** hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga muvofiq**, shuningdek Jondor tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Jondor tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 980,0 mln.so‘m** миқдорида белгилансин.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (X.Majitov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Toirov), tuman soliq inspeksiyasi bo‘limi boshlig‘i (L.Isayev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Q.Safarov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (H.Majitov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi XUDOYEV JAMSHID RAJABOVICH

Xalq deputatlari Jondor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-2-35-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jondor tumani budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy rejasi
1	Foyda solig‘i		0,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	17 681 000,0	17 681 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 724 000,0	44 760 800,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 533 000,0	1 533 000,0
5	Aksiz solig‘i jami	0,0	11 248 800,0
-	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		0,0
-	Pivo		0,0
-	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0,0	11 248 800,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	879 000,0	4 674 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 773 000,0	11 773 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 524 000,0	20 195 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 519 914,0	22 519 914,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	371 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	450 000,0	5 543 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0,0	0,0
13	Davlat boji	0,0	0,0
14	Yig‘imlar	0,0	0,0
15	Jarimalar	0,0	0,0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	185 000,0	185 000,0
JAMI		**65 268 914,0**	**140 484 514,0**
17	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	0,0	0,0
HAMMASI		**65 268 914,0**	**140 484 514,0**

Xalq deputatlari Jondor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-2-35-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Jondor tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**140 484 514**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*33 746 742*
	shundan:	*0*
	"Mening maktabim"	*2 949 163*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0*
	shundan:	0
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	Madaniyat bo‘limi	*3 390 715*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5 967 000*
5	Sport bo‘limi	*16 178 058*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 836 000*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*4 172 007*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*2 324 660*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 440 000*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
11	Hokimyat	*46 590 750*
	shundan:	0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*128 000*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*31 278 601*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 415 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 980 049*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*862 729*
	shundan:	0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*162 000*
	Axborot-kutubxona markazlari	*700 729*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	22 975 853
14	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Jondor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-2-35-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Jondor tumani mahalliy budjetiga 2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari

foiz hisobida

№	Soliqlar va to‘lovlar nomi	2025-yilda ajratma meyorlari			
		Mahalliy budjetga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0%	80%	100%	20%
2	Foyda solig‘i	0%	0%	100%	100%
3	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
4	Pivoga aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0%	60%	100%	40%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	100%	100%	0%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	100%	100%	0%
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	0%	100%	100%	0%
11	Aylanmadan soliq	100%		0%	
12	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	100%		0%	
13	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i	100%		0%	
14	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatiy miqdorda belgilangan soliq	100%		0%	
15	Davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlari	100%		0%	
16	Davlat boji	0%		100%	
17	Jarimalar	0%		100%	
18	Yig‘imlar	0%		100%	